



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 60 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	



O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI TAHLILI

Karimova Moxichehra Rixsibayevna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va
mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda
ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni tashkil etish jarayoni tahlil qilingan. Inklyuziv ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslari, amaliy jihatlar va amaliyotda uchrayotgan muammolar yoritilgan. Shuningdek, Finlyandiya, Italiya, Yaponiya va AQSH tajribalari qiyosiy o'rganilib, milliy tizim uchun tegishli xulosalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim samaradorligi pedagog kadrlarning tayyorgarligi, moddiy-texnika bazaning yetariligi va jamiyat ongining o'zgarishiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, pedagog kadrlar, maxsus ehtiyojli bolalar, rivojlangan davlatlar tajribasi.

Abstract: The article analyzes the process of organizing inclusive education in the preschool education system of Uzbekistan. The legal and regulatory framework, practical aspects, and challenges encountered in practice are highlighted. Moreover, the experiences of Finland, Italy, Japan, and the USA are comparatively studied, and relevant conclusions are drawn for the national system. The research results indicate that the effectiveness of inclusive education depends on the preparedness of pedagogical staff, the adequacy of material and technical resources, and the transformation of public awareness.

Key words: inclusive education, preschool education, pedagogical staff, children with special needs, experience of developed countries.

Аннотация: В статье проанализирован процесс организации инклюзивного образования в системе дошкольного образования Узбекистана. Освещены правовые и нормативные основы, практические аспекты и проблемы, возникающие в процессе реализации. Кроме того, сравнительно изучен опыт Финляндии, Италии, Японии и США, сделаны соответствующие выводы для национальной системы. Результаты исследования показывают, что эффективность инклюзивного образования зависит от подготовки педагогических кадров, достаточности материально-технической базы и трансформации общественного сознания.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дошкольное образование, педагогические кадры, дети с особыми потребностями, опыт развитых стран.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jumladan, inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish – barcha bolalarning, shu jumladan alohida ta'lim ehtiyojiga ega farzandlarning teng ta'lim olish huquqini kafolatlaydi. YUNESKO (2020) ta'rifiga ko'ra, inklyuziv ta'lim "ta'lim olish jarayonida barcha bolalarni qamrab olish va ularning individual ehtiyojlarini inobatga olish"dir.

Hozirgi global ta'lim jarayonlarida "inklyuziv ta'lim" tushunchasi barcha bolalarning jamiyat hayotida teng ishtirokini ta'minlaydigan asosiy pedagogik va ijtimoiy tamoyil sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon ta'lim siyosatida inklyuziv yondashuv YUNESKO tomonidan ta'limdagi asosiy strategik maqsad sifatida belgilangan bo'lib, u "hech bir bolani ta'limdan chetlatmaslik" tamoyilini ilgari suradi. Shu jihatdan, inklyuziv ta'lim faqatgina maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olish emas, balki barcha tarbiyalanuvchilar uchun teng sharoit yaratishni nazarda tutadi.



O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli¹ Qonuni hamda "2021–2025-yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" mazkur jarayonning huquqiy-me'yoriy asosini belgilab berdi.

Shu bilan birga, milliy amaliyotda inklyuziv ta'limni tashkil etishda bir qator tizimli muammolar mavjud:

- kadrlar tayyorgarligi – inklyuziv pedagogika sohasida malakali tarbiyachi va defektolog kadrlar yetarli emas;
- infratuzilma va moddiy ta'minot – ko'pgina maktabgacha ta'lim muassasalarida adaptiv jihozlar va maxsus o'quv vositalari taqchil;
- jamiyat munosabati – ota-onalar va keng jamoatchilik orasida inklyuziv ta'limga oid ijtimoiy stereotiplar saqlanib qolmoqda.

Xalqaro ilmiy-tadqiqotlar ham shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limning samarali amalga oshirilishi ko'p jihatdan pedagog kadrlarning malakasi va tayyorgarligiga, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy-psixologik tayyorligiga bog'liq (Florian & Black-Hawkins, 2011; OECD, 2019). Masalan, Yevropa va AQSH tajribasida har bir bola uchun individual ta'lim dasturi ishlab chiqilishi natijasida ularning ijtimoiy integratsiyasi va ta'limdagi yutuqlari yuqori samaradorlik bergan.

Shu sababli, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etish jarayonini rivojlangan davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilish, milliy tizim uchun samarali model va yo'nalishlarni belgilash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'lim masalasi so'nggi yillarda nafaqat xalqaro, balki O'zbekiston ilmiy jamoatchiligi diqqat markazida turibdi. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni 2019-yilda qabul qilinib, mazkur sohada huquqiy asoslarni belgilab berdi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yilda tasdiqlangan "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" mamlakatda ushbu tizimni joriy etishning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib berdi. Bu hujjatlar ta'lim sohasida teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan amaliy qadamlar sifatida e'tirof etiladi.

Xalqaro miqyosda UNESCOning 2020-yilda chop etilgan "Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education" hisobotida barcha bolalarni ta'lim jarayoniga jalb qilishning zarurligi ta'kidlangan. OECD tomonidan 2019-yilda e'lon qilingan "Inclusive Early Childhood Education" tadqiqoti esa erta yoshdan boshlab inklyuziv yondashuvni joriy etishning ijtimoiy va pedagogik afzalliklarini ochib bergan. Ushbu manbalar inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosati va jamiyat ongini o'zgartirish bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, AQSHda 2004-yilda qabul qilingan "Individuals with Disabilities Education Act (IDEA)" maxsus ehtiyojli bolalarning huquqlarini kafolatlab, ularning ta'lim jarayonida to'liq ishtirokini ta'minlashni belgilaydi. Yevropa Maxsus ehtiyojli va inklyuziv ta'lim agentligi 2021-yilda ta'limning inklyuziv tamoyillarini ishlab chiqib, barcha davlatlar uchun metodik yo'nalishlarni taqdim etdi. Bu manbalar O'zbekiston uchun milliy sharoitga mos keladigan samarali model ishlab chiqishda muhim nazariy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy usullardan foydalanildi. Ilmiy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi, xalqaro tajribalar o'rganildi, shuningdek OAV hamda YUNESKO, UNICEF va OECD hisobotlaridan ma'lumotlar yig'ildi. Milliy holatni baholash jarayonida esa O'zbekistondagi pilot maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga oid ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish belgilangan. Inklyuziv ta'lim – bu jismoniy, sensor, aqliy yoki ijtimoiy ehtiyojlari turlicha bo'lgan bolalarning teng huquqli ta'lim muhitida tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan pedagogik va ijtimoiy jarayondir (UNESCO, 2020).

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limning huquqiy asoslari 2019-yilda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlab qo'yildi. Shuningdek, 2021-yilda Vazirlar Mahkamasi

¹ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli Qonuni: <https://lex.uz/docs/-4646908>

qarori bilan tasdiqlangan “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” 2025-yilgacha sohada amalga oshirilishi lozim bo’lgan ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Ushbu hujjatlarda inklyuziv ta’limni joriy etishning huquqiy, tashkiliy va metodik asoslari belgilangan bo’lib, uning asosiy maqsadi barcha bolalarni teng ta’lim jarayoniga qamrab olishdan iboratdir.

Shu bilan birga, milliy amaliyotda qator tizimli muammolar ham mavjud:

Birinchidan, pedagog kadrlar tayyorgarligi masalasi dolzarb hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning ko’pchiligi inklyuziv pedagogika sohasida chuqur bilim va amaliy ko’nikmalarga ega emas. Holbuki, xalqaro tajriba shuni ko’rsatadiki, inklyuziv ta’limning samaradorligi, avvalo, pedagoglarning malakasiga bog’liq (Florian & Black-Hawkins, 2011).

Ikkinchidan, infratuzilmaviy omillar yetarli darajada emas. Maktabgacha ta’lim muassasalarining aksariyatida maxsus jihozlar (masalan, brayl alifbosi, korreksion o’yinlar, adaptiv jihozlar) mavjud emas yoki cheklangan. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalarning ta’lim jarayonida faol ishtirokini cheklaydi.

Uchinchidan, jamiyatning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi ham muhim omil hisoblanadi. Ayrim ota-onalarda inklyuziv ta’limga nisbatan ijobiy munosabat shakllanib borayotgan bo’lsa-da, jamiyatda maxsus ehtiyojli bolalar haqidagi an’anaviy stereotiplar hanz saqlanib qolmoqda. Bu esa ularni ta’lim jarayoniga to’liq integratsiya qilishga to’sqinlik qiladi.

Shuningdek, UNICEF (2022) hisobotlariga ko’ra, O’zbekistondagi maktabgacha ta’lim muassasalarining faqat cheklangan qismida inklyuziv ta’lim elementlari amalda qo’llaniladi. Pilot loyihalar doirasida erishilgan natijalar ijobiy bo’lsa-da, ular hali keng qamrovli tizimga aylanmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O’zbekistonda inklyuziv ta’limni yanada samarali tashkil etish uchun quyidagi ustuvor vazifalar dolzarb hisoblanadi:

1. Pedagog kadrlarni inklyuziv pedagogika sohasida qayta tayyorlash va malakasini oshirish.
2. Maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini zamonaviy adaptiv vositalar bilan ta’minlash.
3. Jamiyat ongini o’zgartirish va ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo’lga qo’yish.
4. Xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish hamda bosqichma-bosqich milliy inklyuziv ta’lim modelini joriy etish.

Rivojlangan davlatlar tajribasi

Inklyuziv ta’limni tashkil etish masalasida rivojlangan davlatlar tajribasi turli model va yondashuvlarga asoslangan bo’lib, ularning barchasi umumiy maqsad – barcha bolalarning teng ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, inklyuziv ta’limning samaradorligi davlat siyosati, huquqiy asoslar, pedagog kadrlarning tayyorgarligi va infratuzilmaning yetarli darajada ta’minlanganligiga bog’liq (OECD, 2019; UNESCO, 2020).

- **Finlyandiya tajribasi.** Finlyandiya ta’lim tizimi dunyodagi eng samarali modellardan biri sifatida e’tirof etilgan. Bu mamlakatda “Special Needs Education” dasturi orqali har bir bola uchun individual ta’lim yo’l xaritasi ishlab chiqiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida defektolog, logoped va psixologlar muntazam ravishda pedagoglar bilan hamkorlik qiladi. Natijada, maxsus ehtiyojli bolalarning ta’limga qo’shilishi yuqori darajada ta’minlanadi (Halinen & Järvinen, 2008).
- **Italiya tajribasi.** Italiya Yevropada inklyuziv ta’limning yetakchi namunalaridan biridir. Bu mamlakatda 1970-yillardan boshlab maxsus maktablar bosqichma-bosqich tugatilgan va barcha bolalar umumiy sinflarda ta’lim olishga jalb etilgan. Davlat siyosati darajasida defektolog va logopedlar pedagogik jamoalarga birlashtirilgan. Shu bois Italiyada inklyuziv ta’lim faqat pedagogik emas, balki ijtimoiy himoya siyosati bilan uyg’unlikda amalga oshiriladi (Canevaro, 2017).
- **Yaponiya tajribasi.** Yaponiyada inklyuziv ta’lim va maxsus ta’lim muassasalari parallel ravishda faoliyat ko’rsatadi. Bu model “bosqichma-bosqich integratsiya” prinsipiga asoslangan bo’lib, har bir bola o’z qobiliyati va ehtiyojidan kelib chiqib umumiy ta’lim muassasasiga jalb qilinadi. Yaponiya tajribasi shu jihati bilan ahamiyatli, u jamiyatning psixologik tayyorgarligini hisobga olib, inklyuziv ta’limni bosqichli tarzda amalga oshirgan (Hirano, 2020).
- **AQSH tajribasi.** AQSHda inklyuziv ta’lim huquqiy jihatdan “Individuals with Disabilities Education Act (IDEA)” qonuni bilan kafolatlangan. Unga muvofiq, har bir maxsus ehtiyojli bola uchun shaxsiy ta’lim dasturi (Individualized Education Program – IEP) ishlab chiqiladi va davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Bundan tashqari, pedagog kadrlarning malakasini oshirish, resurs markazlari va ota-onalar bilan hamkorlik tizimli ravishda yo’lga qo’yilgan (US Department of Education, 2004).



Xulosa sifatida

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limning samarali amalga oshirilishi quyidagi omillarga bog'liq:

1. Davlat siyosatining uzluksizligi va huquqiy kafolatlar mavjudligi.
2. Pedagog kadrlarning inklyuziv pedagogika sohasida yuqori malakaga egaligi.
3. Maktabgacha ta'lim muassasalarining zamonaviy adaptiv infratuzilma bilan ta'minlanganligi.
4. Jamiyatning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi va ota-onalar bilan hamkorlik darajasi.

Shu bois, O'zbekistonda milliy inklyuziv ta'lim modelini rivojlantirishda Finlyandiya va Italiya tajribasidagi to'liq integratsiya, Yaponiya tajribasidagi bosqichli yondashuv hamda AQSH tajribasidagi individual ta'lim dasturlari (IEP)ni milliy sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim samaradorligi tizimli yondashuv va uzluksiz davlat siyosati bilan chambarchas bog'liq. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali joriy etish uchun quyidagi amaliy yo'nalishlar dolzarb ahamiyat kasb etadi:

- *birinchidan*, pedagog kadrlar tayyorgarligi va malakasini oshirish masalasi ustuvor vazifa hisoblanadi. Xalqaro tajriba (Florian & Black-Hawkins, 2011; OECD, 2019) shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim samaradorligi, avvalo, tarbiyachi va pedagoglarning tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv pedagogika fanlarini chuqur o'rgatish, amaliyotchi mutaxassislar (defektolog, logoped, psixolog) bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur.
- *ikkinchidan*, moddiy-texnika bazani takomillashtirish talab etiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarini maxsus jihozlar, adaptiv o'quv vositalari, korreksion o'yinlar va multimedaviy resurslar bilan ta'minlash maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim jarayonida to'liq ishtirokini ta'minlaydi. Finlyandiya va AQSH tajribalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim muhitini moddiy jihatdan moslashtirish integratsiya jarayonining muhim shartidir.
- *uchinchidan*, jamiyat va ota-onalar ongini o'zgartirishga qaratilgan targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozim. Italiya va Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limning samarali amalga oshirilishi ota-onalarning faol ishtirokisiz mumkin emas. O'zbekistonda ham ota-onalar bilan muntazam ma'rifiy seminarlar va amaliy treninglar tashkil etish inklyuziv muhitni barqaror qilishga yordam beradi.
- *to'rtinchidan*, milliy inklyuziv ta'lim modelini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich joriy etish muhimdir. Yaponiya tajribasidagi kabi bosqichli integratsiya modeli O'zbekiston sharoitiga mos keladi, zero u jamiyatning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligini hisobga oladi. Shu bilan birga, AQSH tajribasidagi individual ta'lim dasturlari (IEP) milliy tizimda adaptatsiya qilinishi maqsadga muvofiqdir.
- *beshtinchidan*, monitoring va baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Inklyuziv ta'lim jarayoni samaradorligini aniqlash uchun milliy indikatorlar va KPI tizimini joriy etish ta'lim sifati va natijadorligini baholash imkonini yaratadi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etish huquqiy asoslarga ega bo'lsa-da, uning amaliyotga tatbiq etilishida tizimli yondashuv talab etiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida pedagog kadrlar malakasini oshirish, moddiy-texnika bazani takomillashtirish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va milliy modelni bosqichma-bosqich joriy etish inklyuziv ta'limning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish milliy qonunchilikda o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, uning amaliyotga tatbiq etilishida tizimli muammolar mavjud. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limning samaradorligi uchta asosiy omilga bog'liq: pedagog kadrlarning tayyorgarligi, moddiy-texnika ta'minoti va jamiyat ongining o'zgarishi. Shu sababli, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni samarali joriy etish uchun kompleks milliy strategiya ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi qarori, 2021-yil.
3. UNESCO. (2020). Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education. Paris: UNESCO Publishing.
4. OECD. (2019). Inclusive Early Childhood Education. OECD Publishing.
5. United States Department of Education. (2004). Individuals with Disabilities Education Act (IDEA).
6. European Agency for Special Needs and Inclusive Education. (2021). Key Principles of Inclusive Education.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.